

O'zbekiston Respublikasining Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida Qonunining 9-moddasiga binoan quyidagilar ov qilish joylariga kirmaydi:

- aholi punktlarining yerlari;
- sog'lomlashtirish, rekreatsiya va tarixiy-madaniy maqsadga mo'ljallangan yerlar;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, agar ularning rejimida ov qilish nazarda tutilmagan bo'lsa;
- shaharlar atrofidagi yashil zonalar;
- korxonalarining sanitariya-himoya zonalari;
- suv olish inshootlarining himoya zonalari;
- aerodromlar;
- temir yo'llarning himoya zonalari;
- chegara oldi mintaqasi;
- hosil yig'ishtirib olinguniga qadar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar;
- to'g'onlar, suv ayirgichlar, ko'priklar yonidagi, baliqchilik pitomniklari, hovuz xo'jaliklari va boshqa madaniy baliqchilik xo'jaliklari chegaralaridagi uchastkalar, agar ushbu obyektlarni muhofaza qilish rejimida ov qilishga doir taqiq nazarda tutilgan bo'lsa.